



BLENDEN LEARNING-ARALASH TA'LIM MODELLARINING HUQUQ TA'LIMIDAGI SAMARADORLIGI

Qarshiyeva Uljonoy Shokir qizi

Qashqadaryo yuridik texnikumi o'qituvchisi

E-mail: ukarshieva1625@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17405141>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-oktabr 2025 yil

Ma'qullandi: 15-oktabr 2025 yil

Nashr qilindi: 21-oktabr 2025 yil

KEYWORDS

aralash ta'lim, aylanma sinf modeli, rotatsiya modeli, flex modeli, boyitilgan virtual model, keys-stadi, sud simulatsiyasi.

ABSTRACT

Ushbu maqolada aralash ta'lim (blended learning)ning umumiy ta'rifi, uning huquqiy fanlarni o'qitish va o'zlashtirishga ta'siri o'rganib chiqiladi, shuningdek aralash ta'lim modellari tadqiq qilinib, ushbu modellarning zamonaviy hamjamiyatida kasbiy kompetentligi yuqori darajada bo'lgan yuridik kadrlarni tayyorlashdagi kutilishi mumkin bo'lgan imkoniyatlari tahlil etiladi va mavzu yuzasidan amaliy takliflar beriladi.

So'nggi yillarda ta'lim tizimida zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish, o'quvchilar uchun turli shakllarda ta'lim olishga imkoniyatlar yaratish, bu orqali ta'limning yanada samarali natijalariga erishish uchun amaliy harakatlar olib borish dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning 08.10.2019 yildagi PF-5847-sonli Farmoni asosida ishlab chiqilgan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish KONSEPSIYASI"da belgilab berilgan ustuvor yo'nalishlar va aniq maqsadlar "yo'lchi yulduz" vazifasini o'taydi deyilsa mubolag'a bo'lmaydi. Jumladan, ushbu Konsepsiyaning 3-bobida ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish bo'yicha amalga oshirish maqsad qilingan tadbirlar orasida "ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, "blended learning", "flipped classroom" texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish; zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida masofaviy ta'lim dasturlarini tashkil etish; ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar, seminarlarni onlayn kuzatish va o'zlashtirish imkonini beruvchi, shuningdek ularni elektron axborot saqlovchilarga yuklovchi "E-MINBaR" platformasini amaliyotga joriy etish, ta'lim jarayonlarida "bulutli texnologiyalar"dan foydalanish"¹ kabilarning keltirilganligi alohida ahamiyatlidir.

Blended learning (aralash ta'lim) bu an'anaviy va onlayn ta'lim tizimining birlashmasi bo'lib, talabalarga texnologiyadagi yutuqlar sabab dars jarayonlariga to'liq qatnashish, mavzularni yaxshi o'zlashtirish, sifatli manbalarga ega bo'lish nafaqat an'anaviy sinfxonalarda

¹ O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish KONSEPSIYASI", <https://lex.uz/docs/-4545884>

balki o'zi uchun qulay bo'lgan boshqa muhitlarda ham ta'lim olishga imkoniyatlar yaratib beradi. "Onlayn va oflayn ta'lim elementlarining kombinatsiyasi ta'limni samarali, iqtisodiy qulay qilish imkonini beradi va ta'lim jarayonini interaktiv, shaxsga yo'naltirilgan va manfaatdor tomonlar uchun moslashuvchanligini ta'minlaydi"². aralash ta'limning huquqiy fanlarni o'qitishda bir qator ijobiy tomonlari mavjud, jumladan quyidagilar bo'lajak yuridik kadrlarni yetishtirishda ushbu ta'lim shakli birlashmasining foydali jihatlari bo'loladi:

1. Moslashuvchanlik. Bunda talabalar vaqt va joyga bog'lanmasdan onlayn materiallarni o'rganib, jonli dars mashg'ulotlariga tayyor holda kelishi mumkin. Huquq ta'limida bu masofaviy yuridik manbalarni, videoleksiyalarni va elektron qonun to'plamlarini o'z vaqtida ko'rish imkonini beradi. Ya'ni talaba dars jarayonida hujjatlarni izlash uchun vaqt sarflamaydi.

- Inividuallashtirish. Har bir talabaning o'rganish tezligiga mos ravishda resurslar taqdim etish, qo'shimcha mashqlar yoki chuqurlashtirilgan materiallarni berish imkoniyati yaratiladi. Natijada zaif tomonlari bo'lgan talabalar huquqiy tahlil yoki hujjat yozish ko'nikmalarini qo'shimcha mashg'ulotlarda mustahkamlab ololadilar.

3. Talabaning dars jarayonidagi bevosita ishtirokini oshirish. Interaktiv vazifalar, simulyatsiyalar talabalar faoliyatini rag'batlantiradi. Huquq ta'limida bu moot court, rol o'yinlari va case-study muhokamalari orqali amalga oshirilishi mumkin.

4. amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish. Hujjat tayyorlash mashqlari va real ish holatlariga asoslangan topshiriqlar orqali amaliy ko'nikmalar shakllanadi — masalan, shartnoma tuzish yoki dalillarni tayyorlash.

5. Qayta tayyorgarlik, resurslarga erkin kirish. Talabalar darsdagi mavzularni qayta ko'rib chiqishi, videolarni takror ko'rishi va o'z xatolarini tuzatishi mumkin. Bu, masalan, murakkab yuridik mavzularning chuqurroq o'zlashtirilishiga yordam beradi.

6. Uzlüksizlik. Pandemiya yoki boshqa to'sqinliklar holatlarida ham ta'lim uzlüksiz davom etadi, bu huquqiy ta'lim jarayoni va o'zlashtirishning barqarorligini ta'minlaydi.

Shuningdek "aralash ta'lim raqamli vositalar va resurslardan foydalanish orqali moslashuvchanlik va qulaylikni ta'minlaydi, talabalarga kurs materiallari bilan o'z tezligida va o'z o'rganish usullarida o'zaro ta'sir qilish imkonini beradi. Onlayn komponentlarga multimedia komponentlari, interfaol mashqlar va real ilovalarni kiritish orqali talabalarning ishtiyoqi va faolligi yanada ortadi"³.

Hozirgi vaqtda dunyoning aQSH, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Fransiya kabi rivojlangan mamlakatlari huquq institutlari va kollejlari aralash ta'lim tizimidan keng foydalanilib, talaba va professorlar uchun qulayliklar yaratilib kelinmoqda. Onlayn va gibrid ta'lim ayniqsa Covid-19 pandemiyasi davrida keng yoyilib, Educause saytining ma'lumotlariga ko'ra bu davrda birgina aQSHda 85%dan ortiq universitetlar o'z faoliyatini onlayn yoki aralash tarzda amalga oshirishgan.⁴

2 Холмиров, Бегали "Аралаш таълим (blended learning) технологияси асосида ўқув жараёнини ташкил этиш. "[Матн]: методик қўлланма / Б.Холмиров. – Т.:

"Yetakchi nashriyoti", 2024. – 5-6

3 The Impact of Blended Learning on Student Engagement in the Digital Era article in European Chemical Bulletin · June 2023 DOI: 10.48047/ecb/2023.12.si12.063

4 <https://www.educause.edu/>

aralash ta'limning juda ko'plab modellari mavjud, ularni tasniflash amaliy jihatdan qaraganda imkonsizdir. Chunki ushbu modellar ko'p hollarda birlashib, yoki qo'shimchalar kiritilgan holda qo'llaniladi. Masalan, Naira Xatkar tomonidan amalga oshirilgan izlanish natijasida aralash ta'limning 17 ta modeli sanab o'tiladi.⁵ B. Xolmirov esa Face to face driver, Rotation, Flex learning, Online laboratory, Self-blend modellarini Top-1000 universitetlarda keng qo'llaniluvchi aralash ta'lim modellari sifatida ta'riflaydi⁶.

Huquqiy fanlarni o'qitishda aralash ta'limdan foydalanish yuqorida sanab o'tilgan sabablarga ko'ra, boshqa fanlarga nisbatan ham natijaviyrog bo'lishi mumkin. Huquq sohasi o'ziga xos murakkabligi, doimiy o'zgarib turishi va amaliyotga yo'naltirilganligi sababli, an'anaviy yuzma-yuz o'qitish va onlayn resurslarni birlashtirish ayniqsa muhimdir. Chunki murakkab keyslarni ko'rib chiqish, hujjatlar bilan ishlash, qonunchilikni tahlil etish an'anaviy mashg'ulotlarda ko'p vaqtning sarflanishiga olib keladi. Quyida huquqiy fanlarni o'qitishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan aralash ta'lim modellarini tahlil qilamiz.

1. Flipped Classroom (aylanma Sinf) Modeli. Marks (2015) so'zlariga ko'ra, "Flipped classroom an'anaviy ravishda sinfda sodir bo'lgan va hozir sinfdan tashqarida sodir bo'ladigan voqealarni anglatadi"⁷. Bu model huquqiy fanlari uchun juda qulay bo'lib, talabalar darsdan oldin uyda onlayn video ma'ruzalar, o'quv materiallari, yuridik hujjatlarning tahlillari yoki sud qarorlari haqidagi videokliplar orqali nazariy bilimlarni o'zlashtiradilar. Sinfda esa o'qituvchi yordamida real yuridik vaziyatlarni muhokama qilish va ularga huquqiy yechim topish, sud jarayonlarini simulyatsiya qilish, munozaralar olib borish bilan shug'ullaniladi. Natijada nazariy bilimlar chuqurrog o'zlashtirilishiga imkon beriladi, talabalar sinfdagi vaqtini amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga maksimal darajada bag'ishlaydi, talabalarning tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatini oshiradi.

"Ushbu modelda o'quvchilar oldingi ma'ruzalar bilan ishlashadi, hujjatlarni o'qish, umumlashtirish, ma'ruzalarni videotasmalar, PowerPoint va onlayn hujjatlar kabi yordamchi vositalar yordamida tinglash; ma'ruzalar o'quvchilar darsga borishdan oldin tayyorlashlari kerak bo'lgan uy vazifasiga aylanadi. Dars vaqti munozara, muammolarni hal qilish, amaliyot va bilimlarni mustahkamlash uchun ishlatiladi"⁸.

2. Rotation Model (Rotatsiya Modeli). Ushbu modelda talabalar bir nechta o'quv stansiyalari orasida aylanib o'qishadi. Masalan quyidagi stansiyalar mavjud bo'lishi mumkin:

- Onlayn stansiya. Yuridik ma'lumotlar bazalaridan foydalanish, onlayn testlarni bajarish, huquqiy simulyatsiyalar bilan ishlash uchun.

5 <https://www.21kschool.com/ru/blog/types-of-blended-learning-models/>

6 Холмиров, Бегали "Аралаш таълим (blended learning) технологияси асосида ўқув жараёнини ташкил этиш. "[Матн]: методик қўлланма / Б.Холмиров. – Т.: "Yetakchi nashriyoti", 2024. – 10-6

7 Marks, D., 2015, Flipping The Classroom: Turning an Instructional Methods Course Upside Down. Journal of College Teaching and Learning, 12(4), 241-248.

8 applying the Flipped Classroom Model in Teaching the "Law and Life" Topic of the 10th Grade's Economics and Law Education Subject Pham Viet Thang , Nguyen Thi Thanh Tung, Hoang Thi Thuan, Luu Thi Thu Ha american Journal of Educational Research. 2023, 11(6), 407-413. DOI: 10.12691/education-11-6-9 Received March 11, 2023; Revised June 07, 2023; accepted June 10, 2023

- O'qituvchi bilan stansiya. Kichik guruhlarda o'qituvchi bilan murakkab tushunchalarni muhokama qilish, savollar berish, shaxsiy maslahat olish uchun.

- Guruh ishi stansiyasi. Tengdoshlar bilan loyihalar ustida ishlash, yuridik masalalarni muhokama qilish uchun.

- amaliy stansiya. Yuridik hujjatlar (shartnomalar, da'vo arizalari) tuzish bo'yicha amaliy mashg'ulotlar o'tkazish uchun.

Ushbu model talabalarga turli xil o'rganish usullarini sinab ko'rish imkoniyatini beradi, individual ehtiyojlarga moslashuvchanlikni ta'minlaydi, o'qituvchiga kichik guruhlar bilan ishlash imkoniyatini yaratadi. Masalan, Fuqarolik huquqi modulida shartnomalar mavzusini oladigan bo'lsak, onlayn stansiyada talabalar ma'ruza mashg'ulotlarini tinglaydilar, amaliy stansiyada esa nazariy bilimlarini amalda sinab, shartnomalar tuzadilar.

3. Flex Model. Bu modelda yuridik nazariya va tushunchalarning asosiy qismi onlayn platformalar orqali (video darslar, interaktiv modullar, o'z-o'zini tekshirish testlari) o'rganiladi. O'qituvchi esa mentor rolini o'ynab, talabalarga shaxsiy maslahatlar beradi, qiyinchilik tug'ilganda yordam beradi, murakkab holatlarni muhokama qilish uchun yuzma-yuz uchrashuvlar tashkil etadi. Ushbu model talabalarga o'qish tezligini va jadvalini moslashtirish imkoniyatini beradi, chuqur mustaqil tadqiqotlarni rag'batlantiradi, professional rivojlanishga o'xshash muhitni yaratadi. Ushbu model masofaviy ta'lim shakliga eng yaqini bo'lib bunda katta mas'uliyat talabaning o'ziga yuklanadi.

4. Enriched Virtual Model (Boyitilgan Virtual Model). Bunda kursning asosiy qismi onlayn tarzda (yuridik fanlar bo'yicha katta ma'lumotlar hajmini o'zlashtirish uchun qulay) o'tiladi. Biroq, vaqti-vaqti bilan talabalar majburiy yuzma-yuz sessiyalarga (masalan, har oyda bir marta yoki kurs boshida/oxirida) qatnashadilar. Ushbu modelda sinf darslari muhim munozaralar o'tkazish, amaliy mashg'ulotlar o'tkazish (masalan, sud zalida), yakuniy imtihonlar uchun xizmat qilishi mumkin.

Covid-19 pandemiyasi davrida yurtimizdagi ko'plab universitetlar qatori Toshkent davlat yuridik universitetida ham onlayn va gibril ta'lim shakllaridan foydalangan holda dars mashg'ulotlari tashkil etildi va tajribalar orttirildi. aralash ta'lim modellaridan Flipped classroom modeli qo'llangan holda, ma'ruza mashg'ulotlari onlayn olib borilib, manbalar elektron resurslarga joylandi, seminar mashg'ulotlari esa an'anaviy tarzda sinfxonalarda o'tkazildi. aytishimiz joizki, huquq ta'limida onlayn dars mashg'ulotlaridan ko'ra gibril ta'limning samarasi yuqoriligi sezilarli bo'ldi. Chunki, yuridik fanlarning murakkabligi, ularni amaliy mashg'ulotlar bilan olib borish zarurati huquq ta'limida butunlay onlayn- masofaviy ta'limni o'rnatib bo'lmasligini ko'rsatadi. Covid-19 davrida orttirilgan tajriba natijasi o'laroq hozirgi kunda ham magistratura bosqichi talabalari uchun blended learning metodi qo'llanilib kelmoqda.

Blended learning-aralash ta'limning qo'llanilishi o'z afzalliklari bilan birgalikda, amalga oshirishdagi qiyinchiliklarga ham ega. Misol uchun, barcha hududlarda onlayn platformalardan foydalanish, onlayn darslarga qatnashish uchun internet tarmog'ining yetarli darajada emasligi, manbalarning shakllantirilmaganligi, nisbatan yuqori mas'uliyat talabaga yuklanishi, nazorat kamayishi kabilar. "Tegishli infratuzilma va texnologiyaga kirishning yo'qligi BL muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi uchun ba'zi cheklovlarni keltirib chiqarishi mumkin. Tshabalala, Ndeya-Ndereya, and Merwe (2014) aralash ta'limni amalga oshirishda cheklovlarni qo'shadigan muammolar ro'yxatini tuzdilar:

"siyosatning yo'qligi, professor- o'qituvchilarning qo'llab- quvvatlanmasligi, texnologik va kompyuter ko'nikmalarining etishmasligi, sinflarning kattaligi va texnologik resurslarning etarli emasligi" (108- bet). Xuddi shu nuqtai nazardan, Smith and Hill (2019) aralash ta'limning aniq maqsadlari va vazifalari zarurligi kabi bir qator kamchiliklarni aniqladi (389- bet). Bundan tashqari, Mirriahi, alonzo, and Fox (2015) ta'kidlaganidek, aralash ta'limning institutsional ta'rifining yo'qligi ba'zi qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi"⁹

Demak, huquq ta'limida blended learning modellarini muvaffaqiyatli qo'llash uchun o'quv dasturini diqqat bilan rejalashtirish, sifatli onlayn materiallarni yaratish va o'qituvchilarni tegishli pedagogik va texnologik ko'nikmalar bilan ta'minlash muhimdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi xulosa va takliflarni berish mumkin:

❖ aralash ta'limning afzalliklari oqibatida uning huquq ta'limida tatbiq etilishi ko'plab ijobiy natijalarga erishish uchun sabab bo'ladi.

❖ Garchi bir qancha qiyinchiliklar mavjud bo'lsa-da, ularni tizimli tarzda bartaraf etish mumkin.

❖ Oliy ta'lim tizimida aralash ta'limni joriy etishning asosini yaratish lozim, aralash ta'limni amalda qo'llashning konsepsiyasi ishlab chiqilishi kerak.

Huquq fakultetlarida ularning bazaviy imkoniyat darajasidan kelib chiqib, Toshkent davlat yuridik universiteti tajribasini yoki aralash ta'limning kerakli modelini tanlagan holda blended learning texnologiyalarini joriy etishni bosqichma-bosqich yo'lga qo'yish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish KONSEPSIYASI", <https://lex.uz/docs/-4545884>
2. Холмиров, Бегали "Аралаш таълим (blended learning) технологияси асосида ўқув жараёнини ташкил этиш. "[Матн]: методик қўлланма / Б.Холмиров. – Т.: "Yetakchi nashriyoti", 2024. – 5-б
3. Marks, D., 2015, Flipping The Classroom: Turning an Instructional Methods Course Upside Down. Journal of College Teaching and Learning, 12(4), 241-248.
4. Oliy ta'limda aralash ta'limning qiyinchiliklari va afzalliklari. Gulnora Namyssova, Gulmira Tussupbekova, Janet Xelmer, Ketil Malun, Mir afzal, Dilrabo Jonbekova Xalqaro ta'lim texnologiyalari jurnali 2 (1), 22-31, 2019 yi
5. applying the Flipped Classroom Model in Teaching the "Law and Life" Topic of the 10th Grade's Economics and Law Education Subject Pham Viet Thang , Nguyen Thi Thanh Tung, Hoang Thi Thuan, Luu Thi Thu Ha american Journal of Educational Research. 2023, 11(6), 407-413. DOI: 10.12691/education-11-6-9 Received March 11, 2023
6. The Impact of Blended Learning on Student Engagement in the Digital Era article in European Chemical Bulletin · June 2023 DOI: 10.48047/ecb/2023.12.si12.063
7. www.lex.uz

⁹ Oliy ta'limda aralash ta'limning qiyinchiliklari va afzalliklari. Gulnora Namyssova, Gulmira Tussupbekova, Janet Xelmer, Ketil Malun, Mir afzal, Dilrabo Jonbekova Xalqaro ta'lim texnologiyalari jurnali 2 (1), 22-31, 2019 yi

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=blended+learning+challenges&oq=blended+learning+cha#d=gs_qabs&t=1760607640362&u=%23p%3DePmazyQKcrQJ